

КАПИТАЛ ҚО'ЙИЛМАЛАР ВА КАПИТАЛ БОЗОР.

Ustoz: Raxmatullayev

Umarbek .

Shogirid: Axmadova Rayhon

Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti To'rtko'l fakulteti

2 - kurs talabasi .

Anatatsiya: Kapital qo'yilmalar (investitsiyalar) – bu pul mablag'lari yoki boshqa resurslarni kelajakda daromad olish maqsadida real aktivlarga (ishlab chiqarish, ko'chmas mulk), moliyaviy vositalarga (aksiya, obligatsiya) yoki intellektual loyihalarga yo'naltirish jarayonidir. Kapital bozori esa uzoq muddatli moliyaviy resurslarni (1 yildan ortiq) jalb qilish va joylashtirish uchun xizmat qiluvchi institutsional mexanizm bo'lib, birlamchi (yangi qimmatli qog'ozlar chiqarish) va ikkinchi darajali (birjada savdo) bozorlardan iborat.

Kalit so'z: kapital, kapital qo'yilma, investitsiya, kapital bozori, qimmatli qog'ozlar, aksiya, obligatsiya, fond birjasi, "Toshkent" RFB, birlamchi bozor, ikkinchi darajali bozor, xususiylashtirish, investor, dividend.

1. Kapital - uzoq muddatli oraliqda mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan resurs. Kapitalni mehnat bilan chekli texnologik almashtirish normasi ikkala ishlab chiqariladigan A va B tovarlar uchun bir xil bo'lib, ular mehnat narxini kapital narxi nisbatiga teng.

2. Kapital qo'yilma: Pul mablag'lari yoki boshqa resurslarni kelajakda daromad olish maqsadida aktivlarga (masalan, korxona, qimmatli qog'ozlar yoki ko'chmas mulk) yo'naltirish jarayoni. Bu iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili.

3. Investitsiya (lotincha: investio- „o‘rash“) iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o‘z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariga uzoq, muddatli kapital kiritish (qo‘yish). Pulning vaqt (zamon)ga bog‘liq qiymati nazariyasiga ko‘ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag‘lar qo‘yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog‘lashni yoki band qilishni bildiradi. Bundan asosiy maqsad kapital qiymatini saqlab qolish yoki bo‘lmasa kapital qiymatini vaqtda o‘stirib borishdir. Iqtisodiy mazmuni jihatdan investitsiya turli faoliyatlarga safarbar etilgan moddiy, nomoddiy boyliklar va ularga bo‘lgan huquqlarni aks ettiradi. Investitsiya sifatida pul, qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, veksel), yer, bino, inshoot kabi boyliklar, intellektual mulk bo‘lgan ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar va b. ishlatiladi. Investitsiya loyihalariga mablag‘ qo‘yuvchilar — investorlar davlat, kompaniya, korxona, chet ellik fuqarolar, aholi va boshqalar bo‘lishi mumkin.

4. Kapital bozori, fond bozori — bo‘sh turgan pul mablag‘larini to‘plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish, so‘ngra uni ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilari (banklar, korxonalar, firmalar, shuningdek, mamlakat aholisi) o‘rtasida taqsimlash munosabatlari; qimmatli qog‘ozlar, korxonalarning aksiyalari hamda davlat obligatsiyalari bilan oldisotdi operatsiyalari olib boriladi. Pul kapitalining qayta taqsimlanishida ishtirok etadigan banklar, fond birjalari va b. moliya-kredit muassasalari majmuini o‘z ichiga oladi. Kapital bozori pul bozori bilan birga iqtisodiyotning tarmoqlari va hukumat uchun tashqi kapital manbai hisoblanadi, ssuda kapitaliga talab va taklifni shakllantiradi.

5. Qimmatli qog‘ozlar: Moliyaviy hujjatlar bo‘lib, ular egasiga huquq yoki daromad beradi, masalan, aksiya (egalik huquqi) yoki obligatsiya (qarz huquqi). Bozorlarda sotiladi va sotib olinadi.

6. **Aksiya** — bu aksiyadorlarga kompaniyaning aktivlari va daromadlari ustidan talab berishga imkon beruvchi moliyaviy qimmatli qog‘oz turidir. Aksiyalar eng keng tarqalgan investitsiya vositalaridan biri bo‘lib, shaxsiy va institut

investorlariga kompaniyalar o'sishi va foydasi bilan bog'liq jarayonlarda ishtirok etishga imkon beradi.

7.Obligatsiya ([lotincha](#): obligatio — majburiyat) — qiymatiga nisbatan egasiga (qat'iy belgilangan daromad keltiruvchi) qimmatli qog'oz, qarzni qaytarib berish va foiz to'lashni tasdiqlovchi majburiyatnoma. [Fond birjalarida](#) sotiladi. Obligatsiya aholi, [korxona](#) va tashkilotlar qo'lidagi pul mablag'larini to'plab, biror maqsad yo'lida safarbar etish uchun chiqariladi. Obligatsiya, asosan, davlat, mahalliy va korporatsiya Obligatsiyalariga bo'linadi. Daromad davlat tomonidan chiqariladigan Obligatsiya bo'yicha yutuq, kompaniyalar Obligatsiyalariga foiz shaklida to'lanadi. Obligatsiya uyushtirilgan savdo orqali (birjalarda) va erkin joylashtiriladi. Obligatsiya moddiy yoki pul mablag'i evaziga kafolatlangan yoki kafolatlanmagan, ya'ni Obligatsiya chiqaruvchilarning chin so'zi va obro'si bilan ta'minlangan yoki ta'minlanmagan bo'lishi mumkin. Ba'zi Obligatsiyalar konvertirlanadi (Obligatsiya egasi uni boshqa Obligatsiyaga almashtirib olish huquqiga ega bo'ladi). Obligatsiyaning bozor narxi uning nominalidan yuqori yoki past bo'ladi.

8.Fond birjasi - qimmatli qog'ozlar va boshqa [moliyaviy](#) vositalar oldi sotdi qilinadigan birja; [pul kapitali](#) harakatiga xizmat ko'rsatadigan moliya bozorining dastaklaridan biri. Bozor infratuzilmasining muhim bo'g'ini, qimmatli qog'ozlar (davlat obligatsiyalari, korxonalar aksiya va obligatsiyalari, bank kredit biletlari, tijorat veksellari), valyuta oldi sotdisi bo'yicha muntazam va tashkiliy faoliyat ko'rsatadi.

9.Toshkent“ Respublika fond birjasi — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 8-aprelda qabul qilingan „Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi farmoniga asosan tashkil etilgan. , 1994 yil 745-son, uning faoliyati respublikada amalga oshirilayotgan islohotlar va xususiylashtirilgan davlat korxonalari negizida ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish siyosati bilan chambarchas bog'liq.

10.Dividend ([lotincha](#): dividendum — taqsimlanadigan narsa) — [aksiyadorlar jamiyati](#) foydasidan [aksiya](#) egasiga har yili beriladigan va uning

daromadiga aylangan qismi. Dividend miqdori aksiyadorlar jamiyatining sof foydasi, aksiyalar soni va qiymatiga bog'liq. Dividend har yili (soliklar to'lanib, i.ch.ni rivojlantirish uchun ajratmalar chiqarilib, zaxiralar to'ldirilgach, obligatsiyalar bo'yicha foizlar va direktorlarga beriladigan mukofot haqi to'langandan so'ng) aksiyadorlarning qo'lidagi aksiya miqdori va turiga muvofiq taqsimlanadi. Taqsimlanadigan hissa Dividend massasi, aksiyalar nominali qiymatlariga ko'ra foizlarda ifodalangan daromad esa Dividend stavkasi deb ataladi. Dividend miqdori oddiy aksiyalar bo'yicha jamiyatning o'sha yilda ko'rgan foydasiga bog'liq. Imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga qat'iy foiz stavkasi miqdorida oldindan belgilanadi. Eng yuqori Dividend olinganda ba'zan ularning bir qismi qo'shimcha chiqarilgan bepul aksiyalar tarzida aksiyadorlarga to'lanadi. Qo'lida aksiyalarning asosiy hissasini to'plagan aksiyadorlar va korporatsiyalar Dividendning eng ko'p qismini oladi.

Xulosa.

Kapital ishlab chiqarishning uzoq muddatli resursi bo'lib, investitsiya orqali kelajakda daromad olish maqsadida korxona, qimmatli qog'ozlar va loyihalarga uzoq muddatga joylashtiriladi; kapital bozori esa bo'sh pul mablag'larini fond birjasida aksiya (kompaniya ulushi, dividend beradi) va obligatsiya (qarz qog'ozi, foiz beradi) shaklida to'plab, ularni iqtisodiyotga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Wikipediya.com

2.grok.ai

3.notbook lm.com

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // Xalq so'zi. 8 fevral 2017 yil.